

UDK: 811.411.21'367:070

**ARAB MATBUOTI SARLAVHALARIDA ISMIY VA FE'LIY
QURILMALARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

Najimova Shahodat Baxodir qizi

Oriental universiteti Lingvistika (arab tili) magistranti

Orcid: 0009-0004-2320-8776

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy arab matbuoti sarlavhalarining sintaktik qurilishi va kommunikativ-pragmatik vazifalari Al-Sharq Al-Awsat, Al-Youm va Al-Youm Al-Sabi gazetalaridan tanlangan 220 ta sarlavha asosida o'rganildi. Tahlilda to'liq ismiy jumlar, fe'liy jumla xabar vazifasida kelgan ismiy jumlar, ismiy birikma shaklidagi elliptik sarlavhalar, fe'liy boshlanishli qurilmalar farqlandi. Natijalar ismiy boshlanish xabarning shaxsi, tashkiloti yoki mavzusini avval ko'rsatishga, fe'liy boshlanish esa harakat va murojaatni oldinga chiqarishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Savol, buyruq, shart, ellipsis va so'z tartibi sarlavhaning xabar berish, qiziqtirish va amaliy yo'naltirish vazifalariga mos ravishda qo'llanadi.

Kalit so'zlar: arab matbuoti, gazeta sarlavhasi, ismiy jumla, fe'liy jumla, elliptik sarlavha, so'z tartibi, kommunikativ vazifa, pragmatika, Al-Sharq Al-Awsat, Al-Youm, Al-Youm Al-Sabi.

Аннотация. В статье исследуются синтаксическая организация и коммуникативно-прагматические функции 220 заголовков, отобранных из газет Al-

Sharq Al-Awsat, Al-Youm и **Al-Youm Al-Sabi**. Разграничиваются полные именные предложения, именные предложения с глагольным сказуемым, эллиптические заголовки в форме именной группы и конструкции с глагольным началом. Именное начало прежде всего обозначает участника, организацию или тему сообщения, тогда как глагольное начало выдвигает на первый план действие или прямое обращение. Вопрос, повеление, условие, эллипсис и порядок слов используются в соответствии с информационной, привлекающей и ориентирующей функциями заголовка.

Ключевые слова: арабская пресса, газетный заголовок, именное предложение, глагольное предложение, эллипсис, порядок слов, прагматика, Al-Sharq Al-Awsat, Al-Youm, **Al-Youm Al-Sabi**.

Abstract. The article examines the syntactic organization and communicative-pragmatic functions of 220 headlines selected from Al-Sharq Al-Awsat, Al-Youm and **Al-Youm Al-Sabi**. It distinguishes full nominal clauses, nominal clauses with a verbal predicate, elliptical nominal-phrase headlines and verbal-initial constructions. Nominal-initial structures foreground the participant, institution or topic of the report, while verbal-initial structures give greater prominence to action or direct appeal. Interrogation, imperative, condition, ellipsis and word order are employed in accordance with the informative, attention-getting and practical-guidance functions of the headline.

Keywords: Arabic press, newspaper headline, nominal clause, verbal clause, elliptical headline, word order, communicative function, pragmatics, Al-Sharq Al-Awsat, Al-Youm, **Al-Youm Al-Sabi**.

KIRISH

Gazeta sarlavhasi matn mazmunini qisqa shaklda ifodalash bilan cheklanmaydi. O'quvchi maqolani ochmasdan turib ham sarlavha orqali voqea kimga tegishli ekanini, qaysi harakat yoki holat muhimligini va xabarning qanday yo'nalishda berilayotganini anglaydi. Shu bois sarlavhaning sintaktik qurilishi mazmunni joylashtirish vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega.¹

Arab tilida gaplar an'anaviy ravishda ismiy va fe'liy turlarga ajratiladi. Biroq gazeta sarlavhalarini tahlil qilishda faqat fe'lning bor-yo'qligiga qarash yetarli emas. Masalan, sarlavha ism bilan boshlanib, keyingi qismida fe'liy jumla xabar vazifasida kelishi mumkin. Boshqa holatda esa sarlavha faqat ismiy birikmadan tuzilib, matbuotga xos ellipsis hisobiga mazmun anglashiladi. Shuning uchun ismiy jumla, ismiy boshlanishli qurilma va ismiy birikma tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim.²

Sarlavhadagi so'z tartibi tahririyat nimani avval ko'rsatmoqchi ekanini bildiradi. Shaxs yoki tashkilot nomining boshda kelishi xabar manbasini aniqlaydi; fe'lning boshlang'ich o'ringa chiqishi esa sodir bo'layotgan harakatga urg'u beradi. Savol shakli javobga ehtiyoj tug'diradi, buyruq va shart shakllari esa o'quvchiga bevosita murojaat qiladi. Demak, grammatik tuzilish va pragmatik vazifa o'zaro bog'liq, lekin ular bir xil tushuncha emas: avval sintaktik tur aniqlanadi, keyin uning kommunikativ ta'siri izohlanadi.³

¹ Murtazoyev V.X. Arab tilidagi gazetalar sarlavhalari tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – 3(5). – B. 300–305.

² Сабина Е.А. Синтаксические структуры современных арабских газетных заголовков // Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. – 2012. – № 2. – С. 77–82; Набиуллина В.Р. Опускание в грамматических конструкциях арабских газетных заголовков // Арабистика Евразии. – 2021. – № 15. – С. 86–96; Darduna M.R. Bina' al-jumla fi lughat 'anawin al-akhbar fi al-suhuf al-'arabiyya // Majallat Jami'at al-Aqsa, Silsilat al-'Ulum al-Insaniyya. – 2017. – 21(1). – P. 34–60; Al-Haj B.M. Al-jumla al-basita fi 'anawin al-suhuf al-qatariyya bayna mutatalabat al-ma'na wa al-sihha al-nahwiyya // Journal of the College of Humanities and Social Sciences. – Qatar University, 2001. – No. 24. – P. 210–255.

³ Спиркин А.Л. Функционально-стилистическая и структурно-графическая интерпретация арабских газетных заголовков // Вестник РУДН. Серия «Русский и иностранные языки и методика их преподавания». – 2008. – № 4. – С. 55–63; Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962; Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969; van Dijk T.A. News as Discourse. – Hillsdale, NJ:

Maqolaning maqsadi Al-Sharq Al-Awsat, Al-Youm va Al-Youm Al-Sabi gazetalaridan shakllantirilgan 220 ta sarlavhali korpus asosida ismiy, fe'liy qurilmalarning asosiy ko'rinishlarini aniqlash hamda ularning xabarni tashkil etishdagi kommunikativ-pragmatik vazifalarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi uch arab nashridan shakllantirilgan korpus asosida ismiy boshlanishli, fe'liy boshlanishli, elliptik sarlavha modellarini sintaktik tuzilish hamda kommunikativ-pragmatik vazifa jihatidan o'zaro farqlab tizimlashtirishda namoyon bo'ladi.

Arab gazeta sarlavhalarining sintaktik va pragmatik xususiyatlari E.A. Sabinina, A.L. Spirkin, V.R. Nabiullina, Medhat Rabi' Darduna va Bakriy Muhammad al-Haj tadqiqotlarida turli jihatlaridan o'rganilgan.⁴ J. Austin, J. Searle, T. van Dijk, A. Bell va D. Dor asarlarida esa nutqiy harakat, axborotning joylashuvi hamda sarlavhaning o'quvchi e'tiborini boshqarish xususiyatlari yoritilgan.⁵ Arab matbuoti tili va sarlavhalarining tarjimadagi talqini I.G. Fateeva, Z.N. Shokirova, N.A. Mayburov, V.X. Murtazoyev va S.N. Ibrohimov ishlarida ham ko'rib chiqilgan.⁶ Tadqiqotning empirik asosini Al-Sharq Al-Awsat, Al-Youm va Al-Youm Al-Sabi gazetalarining 2014–2026-yillardagi elektron sahifalaridan tanlangan 220 ta arabcha sarlavha tashkil etdi.

Lawrence Erlbaum Associates, 1988; Bell A. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell, 1991; Dor D. On Newspaper Headlines as Relevance Optimizers // Journal of Pragmatics. – 2003. – Vol. 35. – P. 695–721.

⁴ Сабинина Е.А. Синтаксические структуры современных арабских газетных заголовков // Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. – 2012. – № 2. – С. 77–82; Спиркин А.Л. Функционально-стилистическая и структурно-графическая интерпретация арабских газетных заголовков // Вестник РУДН. Серия «Русский и иностранные языки и методика их преподавания». – 2008. – № 4. – С. 55–63; Набиуллина В.Р. Опускание в грамматических конструкциях арабских газетных заголовков // Арабистика Евразии. – 2021. – № 15. – С. 86–96; Darduna M.R. Bina' al-jumla fi lughat 'anawin al-akhbar fi al-suhuf al-'arabiyya // Majallat Jami'at al-Aqsa, Silsilat al-'Ulum al-Insaniyya. – 2017. – 21(1). – P. 34–60; Al-Haj B.M. Al-jumla al-basita fi 'anawin al-suhuf al-qatariyya bayna mutatalabat al-ma'na wa al-sihha al-nahwiyya // Journal of the College of Humanities and Social Sciences. – Qatar University, 2001. – No. 24. – P. 210–255.

⁵ Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962; Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969; van Dijk T.A. News as Discourse. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988; Bell A. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell, 1991; Dor D. On Newspaper Headlines as Relevance Optimizers // Journal of Pragmatics. – 2003. – Vol. 35. – P. 695–721.

⁶ Fateeva I.G., Shokirova Z.N. Arab matbuoti tili ustida ishlash. – Toshkent, 2004; Майбуров Н.А. Читаем и переводим арабскую газету. – Москва: Муравей, 2003; Murtazoyev V.X. Arab tilidagi gazetalar sarlavhalari tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – 3(5). – B. 300–305; Ibrohimov S.N. Arab matbuoti sarlavhalarining ifoda shakllari va ularning o'zbek tilidagi mazmuniy talqini // Modern Science and Research. – 2025. – B. 1545–1548.

Korpusga uch nashrning elektron sahifalarida e'lon qilingan, mustaqil sarlavha sifatida shakllangan arabcha materiallar kiritildi. Sarlavhalar sintaktik tuzilishi va kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini kuzatish imkonini berishi asosida tanlandi; nashr nomi, texnik metama'lumot va takroriy birliklar sarlavha tarkibiga kiritilmadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sarlavhalar dastlab boshlang'ich komponentiga ko'ra ismiy va fe'liy qurilmalarga ajratildi. Keyingi bosqichda ismiy guruh tarkibidagi to'liq ismiy jumlar, fe'liy jumla xabar vazifasida kelgan ismiy jumlar hamda ismiy birikma shaklidagi elliptik sarlavhalar farqlandi. Fe'liy guruhda esa oddiy fe'liy, buyruq, shart va so'roq shaklidagi qurilmalar ko'rib chiqildi. Tahlilda struktur-sintaktik, tavsifiy, kontekstual va pragmatik usullardan foydalanildi.

Kommunikativ-pragmatik vazifa sarlavhaning kuzatiladigan til birliklari va sintaktik shakliga tayangan holda belgilandi: so'roq konstruksiyasi javobni ochiq qoldirish, buyruq shakli bevosita murojaat, shaxs yoki tashkilot nomining boshlang'ich pozitsiyasi subyektni oldinga chiqarish, sana va miqdor ko'rsatkichlari esa amaliy axborotni konkretlashtirish vositasi sifatida talqin qilindi.

1. Sarlavhalarning asosiy struktur ko'rinishlari

Korpusdagi 220 ta sarlavhaning 212 tasi, ya'ni 96,4 foizi ismiy, 8 tasi — 3,6 foizi fe'liy qurilmaga mansub ekanligi aniqlandi. Ismiy boshlanishli sarlavhalarda shaxs, tashkilot, hodisa yoki mavzuni avval nomlashga moyillik ustun bo'lsa, fe'liy boshlanishli sarlavhalarda harakat, buyruq yoki jarayon birinchi o'ringa chiqadi.

2. To'liq ismiy jumlar

Ismiy boshlanishli sarlavhalarning bir qismi to'liq predikativ qurilma hisoblanadi. Hozirgi zamondagi arabcha ismiy jumlada “bo'lmoq” fe'lining ko'rinmasligi grammatik

bo‘lak tushirilganini anglatmaydi. Xabar ot, sifat yoki predlogli birikma shaklida kelishi mumkin.⁷

غزة بين هدنة هشة وسلام غائب... واقع يومي بين الأمل والقلق⁸

(G‘azo mo‘rt sulh va hali qaror topmagan tinchlik oralig‘ida: umid va xavotir o‘rtasidagi kundalik hayot)

Birinchi qismda “G‘azo” muftada vazifasida, undan keyingi predlogli birikma esa xabar vazifasida kelgan. Sarlavha vaziyatni bir martalik hodisa emas, davom etayotgan holat sifatida beradi. “Mo‘rt sulh” va “qaror topmagan tinchlik”, “umid” va “xavotir” qarama-qarshiligi mazmunni yanada keskinlashtiradi.

الشعر على حافة الوجود والعدم⁹

(She‘riyat borliq va yo‘qlik chegarasida)

Bu misolda “she‘riyat” muftada, “mayjudlik va yo‘qlik chegarasida” ma‘nosidagi predlogli birikma xabar hisoblanadi. Gap grammatik jihatdan to‘liq. Ismiy shakl muayyan voqeani xabar qilishdan ko‘ra, umumiy falsafiy holatni ifodalash uchun tanlangan.

3. Ismiy birikma shaklidagi elliptik sarlavhalar

Ayrim sarlavhalar to‘liq gap emas, balki ot yoki ismiy birikma shaklida tuziladi. Matbuot konteksti tufayli o‘quvchi tushirilgan predikativ mazmunni oson tiklaydi. Bunday sarlavhalarni to‘liq ismiy jumla deb emas, ismiy birikma shaklidagi elliptik qurilma deb atash aniqroq.¹⁰

«زيارة تاريخية» لترمب... وقمة خليجية أميركية في الرياض¹¹

⁷ Al-Haj B.M. Al-jumla al-basita fi ‘anawin al-suhuf al-qatariyya bayna mutatalabat al-ma‘na wa al-sihha al-nahwiyya // Journal of the College of Humanities and Social Sciences. – Qatar University, 2001. – No. 24. – P. 210–255.

⁸ Al-Sharq Al-Awsat gazetasi, 20.02.2026, maqola № 5242816.

⁹ Al-Sharq Al-Awsat gazetasi, 17.05.2026, maqola № 5274227.

¹⁰ Набиуллина В.Р. Опускание в грамматических конструкциях арабских газетных заголовков // Арабистика Евразии. – 2021. – № 15. – С. 86–96.

¹¹ Al-Sharq Al-Awsat gazetasi, 12.05.2025, maqola № 5142209.

(Trampning “tarixiy tashrifi” va Ar-Riyoddagi AQSh-Ko‘rfaz davlatlari sammiti)

Sarlavha ikki ismiy guruhdan iborat. Birinchi guruh tashrifning siyosiy ahamiyatini, ikkinchisi esa uchrashuvning ishtirokchilari va joyini nomlaydi. Fe‘l berilmagan bo‘lsa-da, voqea mazmuni kontekst orqali anglashiladi. Bunda asosiy e‘tibor harakatning kechishiga emas, tashrif va sammitning o‘ziga qaratilgan.

مشاركة عربية قياسية في مونديال 2026 بـ 8 منتخبات¹²

(2026-yilgi jahon chempionatida arablarning rekord darajadagi ishtiroki: sakkizta terma jamoa.)

Bu sarlavha ham ismiy birikma shaklida tuzilgan. “Rekord arab ishtiroki” qismi xabarning asosiy mavzusini, “sakkiz terma jamoa bilan” birikmasi esa bahoning dalilini beradi. Sarlavha natijani ixcham nomlaydi, shu sababli uni to‘liq muftada-xabar qurilmasi emas, elliptik ismiy birikma sifatida baholash maqsadga muvofiq.

4. Fe‘liy jumla xabar vazifasida kelgan ismiy jumlar

Korpusda juda faol bo‘lgan modelda sarlavha ism yoki tashkilot nomi bilan boshlanadi, keyingi fe‘liy jumla esa shu subyektning xabari bo‘lib keladi. Bunday qurilma grammatik jihatdan ismiy jumla, ichki xabar tuzilishi jihatidan esa fe‘liy jumlaning o‘z ichiga oladi.

لأفلام القصيرة جداً¹³ VS-FILM وزارة الثقافة تكشف موعد الدورة الثالثة لمهرجان

(Madaniyat vazirligi juda qisqa metrajli filmlarga bag‘ishlangan VS-FILM festivalining uchinchi mavsumi sanasini e‘lon qildi)

“Madaniyat vazirligi” sarlavhaning muftadasi, undan keyingi fe‘liy qism esa xabaridir. Boshlanishdagi tashkilot nomi ma‘lumotning kim tomonidan berilganini darhol

¹² Al-Sharq Al-Awsat gazetasi, 02.04.2026, maqola № 5257878.

¹³ Al-Youm Al-Sabi gazetasi, 05.04.2026, maqola № 7366616.

ko'rsatadi. "Oshkor qiladi/e'lon qiladi" ma'nosidagi fe'l yangi ma'lumot berilayotganini anglatadi, biroq pragmatik talqin sarlavhaning grammatik turini o'zgartirmaydi.

منصة «قبول» تعلن الجدول الزمني لإجراءات القبول الموحد للعام الدراسي¹⁴

(*"Qabul" platformasi o'quv yili uchun yagona qabul jarayonlarining vaqt jadvalini e'lon qildi*)

Sarlavha platforma nomi bilan boshlanib, undan keyin rasmiy e'lon mazmuni keladi. Bu tartib xabar manbasini avval, e'lonning mazmunini esa keyin beradi. "Qabul jarayonlari" va "vaqt jadvali" birikmalari sarlavhaning amaliy yo'nalishini aniq ko'rsatadi.

الأهلي ينتفض ويهزم الزمالك بثلاثية نظيفة في قمة الكرة المصرية¹⁵

(*Al-Ahli o'zini tiklab, Misr futboli derbisida Zamalekni 3:0 hisobida mag'lub etdi*)

Sarlavha jamoa nomi bilan boshlangani uchun ismiy boshlanishli qurilmaga kiradi. Xabar vazifasidagi ikki fe'l jamoaning o'yin jarayonidagi faolligi va natijasini ketma-ket ifodalaydi. Sport sarlavhasidagi hayajon fe'llarning o'zidan kelib chiqadi, biroq asosiy grammatik tayanch baribir boshdagi jamoa nomidir.

5. Fe'liy boshlanishli, buyruq, shart va so'roq qurilmalari

Korpusdagi fe'liy boshlanishli sarlavhalar 8 ta bo'lib, jami materialning 3,6 foizini tashkil etdi. Ular buyruq, shart yoki bevosita harakatni ifodalashda muayyan kommunikativ vazifa bajaradi.

اعقلوها وتوكلوا¹⁶

(*Ehtiyot choralari ko'ring va Allohga tavakkal qiling*)

¹⁴ Al-Youm gazetasi, 29.04.2026, maqola № 6658885.

¹⁵ Al-Youm Al-Sabi gazetasi, 01.05.2026, maqola № 7398293.

¹⁶ Al-Sharq Al-Awsat gazetasi, 30.03.2020, maqola № 2208091.

Sarlavha ikki buyruq fe'lidan tuzilgan. Birinchi fe'l ehtiyot choralarini ko'rishga, ikkinchisi tavakkul qilishga chaqiradi. Grammatik shakl bevosita murojaatni yuzaga keltiradi; pragmatik vazifa esa maslahat va da'vatdan iborat.

إن جاءكم فاسق بنبأ فتبينوا.. هل نفعل ذلك حقاً؟¹⁷

(Agar sizga bir fosiq xabar keltirsa, uni aniqlab tekshiring... Biz haqiqatan shunday qilamizmi?)

Birinchi qism shart gapidan iborat bo'lib, uning javob qismida tekshirishga undovchi buyruq fe'li kelgan. Keyingi savol sarlavha muallifining tayyor hukmini emas, o'quvchiga qaratilgan mulohazani beradi. Sarlavhaning birinchi qismi Hujurot surasining 6-oyatidan olingan bo'lib, xabarni tekshirish zaruratini diniy-axloqiy asosda ifodalaydi.

هل تنجح «القوى المتوسطة» في التحول إلى «علاق ثالث» ينقذ العالم؟¹⁸

(“O'rta darajadagi davlatlar” dunyoni qutqaradigan “uchinchi yirik kuch”ga aylana oladimi?)

Sarlavha “هل” so'roq yuklamasi va undan keyingi fe'liy jumladan tuzilgan. Savol natijani ochiq qoldirib, maqola mazmuniga qiziqish uyg'otadi.

6. Elliptik savol va aralash kompozitsion tuzilmalar

أهم الاكتشافات الأثرية التي ظهرت خلال شهر مارس؟¹⁹

(Mart oyida aniqlangan eng muhim arxeologik topilmalar qaysilar?)

Bu sarlavhaning asosiy qismi “mart oyida aniqlangan eng muhim arxeologik topilmalar” ma'nosidagi ismiy birikmadir. ظهرت fe'li nisbiy gap tarkibida aniqlovchi vazifasini bajaradi; u sarlavhaning asosiy kesimi emas. Sarlavha mazmunan أهم هي ما

¹⁷ Al-Youm Al-Sabi gazetasi, 06.07.2021, maqola № 5380142; Qur'oni karim, Hujurot surasi, 6-oyat.

¹⁸ Al-Sharq Al-Awsat gazetasi, 14.03.2026, maqola № 5251184.

¹⁹ Al-Youm Al-Sabi gazetasi, 24.03.2026, maqola № 7339228

الأك تشافات shaklidagi to‘liq so‘roq qurilmasining elliptik ko‘rinishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

«من جد وجد.. ومن زرع حصد».. المحافظون يهئون أوائل الثانوية العامة²⁰

(“Kim tirishsa, topadi; kim eksa, o‘radi”: hokimlar bitiruv imtihonlarida yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilarni tabrikladi)

Sarlavhaning birinchi qismi maqol shaklidagi ikki shart-ma’no munosabatini, ikkinchi qismi esa aniq xabarni beradi. Sarlavhada bir necha sintaktik-kompozitsion unsur ketma-ket birlashgan. Maqol o‘quvchini umumiy g‘oya bilan tayyorlaydi, keyingi jumla esa voqea ishtirokchilari va harakatni nomlaydi.

رسالة الإمام.. الشافعي يذكر قول الرسول «لا ضرر ولا ضرار».. اعرف المقصود²¹

(“Imom risolasi”: Shofe’iy “Zarar yetkazish ham, zararga zarar bilan javob qaytarish ham yo‘q” hadisini eslatadi - uning mazmunini bilib oling)

Bu sarlavhada nomlash, fe’liy xabar va buyruq ketma-ket kelgan. “Imom risolasi” qismi mavzuni ko‘rsatadi, keyingi fe’liy jumla iqtibosning kim tomonidan eslatilganini bildiradi, yakundagi buyruq esa o‘quvchini izoh bilan tanishishga chorlaydi.

7. Sintaktik shakl va kommunikativ-pragmatik vazifa

Tahlil natijalari korpusdagi sarlavhalarining 96,4 foizi ismiy qurilmaga mansub bo‘lib, ismiy boshlanishning yetakchi struktur model ekanini ko‘rsatdi. Biroq ismiy jumla har doim barqarorlikni, fe’liy jumla esa doimo harakat va dinamikani ifodalaydi, degan qat’iy xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Ismiy jumla tarkibida bir necha faol fe’l kelishi, fe’liy jumla esa oddiy rasmiy faktni bildirishi mumkin.

²⁰ Al-Youm Al-Sabi gazetasi, 04.08.2020, maqola № 4912722.

²¹ Al-Youm Al-Sabi gazetasi, 17.04.2023, maqola № 6152417.

Shaxs yoki tashkilot nomining boshda kelishi xabar subyektini avval ko'rsatadi va asosiy e'tiborni shu subyektga qaratadi. Keyingi fe'liy qism esa uning harakati yoki unga bog'liq voqeani ifodalaydi.

Savol shaklidagi sarlavhalar javobi maqola matnida ochiladigan axborot ehtiyojini yuzaga keltiradi. Raqam, sana va muddatlar esa o'quvchiga zarur amaliy ma'lumotni ixcham shaklda yetkazadi. Tahlilda aniqlangan asosiy sintaktik modellar va ularning kommunikativ vazifalari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Arab matbuoti sarlavhalarining sintaktik modellari va kommunikativ vazifalari

Model	Misol	Grammatik izoh	Kommunikativ vazifa
To'liq ismiy jumla	الشعر على حافة الوجود والعدم	Mubtada + predlogli xabar	Holatni umumlashtirib berish
Elliptik ismiy sarlavha	مشاركة عربية قياسية في موندリアル 2026	Ismiy birikma, predikativ mazmun kontekstdan anglashiladi	Natija yoki mavzuni ixcham nomlash
Fe'liy xabarli ismiy jumla	وزارة الثقافة تكشف موعد الدورة	Mubtada + fe'liy jumla shaklidagi xabar	Subyektini avval, harakatni keyin berish
Buyruq shaklidagi fe'liy qurilma	اعقلوها وتوكلوا	Ikki buyruq fe'li	Maslahat va bevosita murojaat
So'roq + fe'liy	هل تتجح القوى	هـ + fe'liy jumla	Javobi matnda

jumla	المتوسطة...؟		ochiladigan savol
Aralash kompozitsion tuzilish	رسالة الإمام.. الشافعي يذكر... اعرف المقصود	Nomlash + fe'liy xabar + buyruq	Mavzu, xabar va chaqiriqni birlashtirish

Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Ismiy boshlanish arab gazeta sarlavhasida mavzuni nomlash va subyektni oldinga chiqarishning keng tarqalgan vositasidir. Shunga qaramay, ismiy guruh ichki jihatdan bir xil emas. To'liq ismiy jumla, fe'liy xabarli ismiy jumla va elliptik ismiy birikma turli grammatik xususiyatga ega. Ularning barchasini "fe'lsiz ismiy jumla" deb atash tahlilni soddalashtirib yuboradi.

Fe'liy boshlanishli modellar buyruq, shart va bevosita harakatni ifodalashda qo'llanadi. Ularning kommunikativ vazifasi grammatik shakl bilan birga sarlavha mazmuni va konteksti asosida belgilanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tahlil qilingan 220 ta arab matbuoti sarlavhasining 212 tasi ismiy, 8 tasi fe'liy qurilmaga mansub bo'ldi. Ismiy qurilmalarning 96,4 foizni tashkil etishi arab matbuotida shaxs, tashkilot, hodisa yoki mavzuni birinchi o'ringa chiqarish tendensiyasi kuchli ekanini ko'rsatdi. Fe'liy boshlanishli sarlavhalar esa 3,6 foizni tashkil etib, harakat, jarayon, buyruq, shart yoki murojaatni mazmuniy markazga olib chiqishi bilan ajralib turadi. Ismiy boshlanishli sarlavhalar ichki tuzilishiga ko'ra bir xil emas. Ular to'liq ismiy jumla, fe'liy jumla xabar vazifasida kelgan ismiy jumla hamda ismiy birikma shaklidagi elliptik sarlavhalarga ajraladi. Hozirgi zamondagi arabcha ismiy jumlada bog'lama fe'lining ko'rinmasligi har doim grammatik bo'lak tushirilganini anglatmaydi. Xabar ot, sifat yoki predlogli birikma shaklida kelishi mumkin. Shaxs yoki tashkilot nomi bilan boshlanib, fe'l bilan davom etadigan sarlavhalarda esa boshdagi ism muftada, keyingi fe'liy jumla uning xabari hisoblanadi.

Fe'liy, buyruq, shart va so'roq qurilmalari o'quvchi e'tiborini harakat yoki murojaatga qaratadi. Biroq savol belgisi bilan tugagan har bir sarlavhani fe'liy gap sifatida baholab bo'lmaydi. Ayrim hollarda nisbiy gapli ismiy birikma yoki tushirilgan so'roq elementi asosidagi elliptik qurilmalar ham uchraydi. Shu bois arab matbuoti sarlavhalarini tahlil qilishda dastlab ularning sintaktik turi aniqlanishi, undan keyin esa kommunikativ-pragmatik vazifasi mazmun va kontekst asosida izohlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fateeva I.G., Shokirova Z.N. Arab matbuoti tili ustida ishlash. – Toshkent, 2004.
2. Майбуров Н.А. Читаем и переводим арабскую газету. – Москва: Муравей, 2003.
3. Murtazoyev V.X. Arab tilidagi gazetalar sarlavhalari tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – 3(5). – B. 300–305.
4. Ibrohimov S.N. Arab matbuoti sarlavhalarining ifoda shakllari va ularning o'zbek tilidagi mazmuniy talqini // Modern Science and Research. – 2025. – B. 1545–1548.
5. Сабина Е.А. Синтаксические структуры современных арабских газетных заголовков // Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. – 2012. – № 2. – С. 77–82.
6. Спиркин А.Л. Функционально-стилистическая и структурно-графическая интерпретация арабских газетных заголовков // Вестник РУДН. Серия «Русский и иностранные языки и методика их преподавания». – 2008. – № 4. – С. 55–63.
7. Набиуллина В.Р. Опускание в грамматических конструкциях арабских газетных заголовков // Арабистика Евразии. – 2021. – № 15. – С. 86–96.
8. Darduna M.R. Bina' al-jumla fi lughat 'anawin al-akhbar fi al-suhuf al-'arabiyya // Majallat Jami'at al-Aqsa, Silsilat al-'Ulum al-Insaniyya. – 2017. – 21(1). – P. 34–60.

9. Al-Haj B.M. Al-jumla al-basita fi ‘anawin al-suhuf al-qatariyya bayna mutatalabat al-ma‘na wa al-sihha al-nahwiyya // Journal of the College of Humanities and Social Sciences. – Qatar University, 2001. – No. 24. – P. 210–255.
10. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.
11. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
12. van Dijk T.A. News as Discourse. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988.
13. Bell A. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell, 1991.
14. Dor D. On Newspaper Headlines as Relevance Optimizers // Journal of Pragmatics. – 2003. – Vol. 35. – P. 695–721.